

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA MEHNATNING O'RNI

Usmanova Saodat,

maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi, Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti

Ma'lumki har bir inson o'zidan keyin avlodining davomchisi bo'lmish farzand ko'rishni va farzandi aql-hushli, el koriga yaraydigan, ilmi, bilimli, mo'min-qobil bo'lishini hohlaydi. Bunday fazilatlarini mujassamlashtirgan holda tarbiyalashning zamirida esa mehnat tarbiyasi yotadi. Mehnatsiz esa qanday tarbiya usuli bo'lishidan qat'iy nazar samara bermaydi. Demak, ertaga bizning o'rnimizni bosuvchi farzandlarimizni qanchalik sevib, yaxshi ko'rmaylik uning ta'lim-tarbiyasida mehnatning o'rnini alohida ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz kerak.

Bugungi kundagi yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi juda muhim va hattoki dolzarb mavzu bo'lib qolyapti. Bolalarni baxtiyor qilish uchun ularga imkoni boricha eng qimmat o'yinchoqlarni sotib olib berish, ularni eng totli shirinliklar bilan boqish, ularga har kuni teatr, kino ko'rsatish, so'ngi modadagi qimmatbaho kiyimlar kiydirish kerak deb o'ylash juda kulgili. Kim shunday o'ylasa, u bolalarni bilmaydi, tushunmaydi, ularni aslzoda boyvachchalar qilib tarbiyalash haqida o'ylaydi. "Kiyimni yangisidan, nomusni yoshlikni saqla" deb bejiz aytilmaydi. Bola atak-chechak qilib yura boshlaguncha muomila qilish bilan birga mehnat tarbiyasini shakllantirib borish yaxshi samara beradi. Bolani suyish, erkalash barobarida undan yuz qismi a'zolarini ko'rsatishni so'raymiz (qulog'i, burni, ko'zi va hakazo). Keyinchalik joyidan turishni, bizga yurib kelishni va asta-sekinlik bilan o'yinchog'ini olib berishni yoki nari olib qo'yishni o'rgatish bilan mehnat tarbiyasi shakllana boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnati o'yin bilan qo'shilib ketadi. Aniq topshiriq berib, ishlatish bu bolalar uchun unchalik ahamiyatga ega emas. Plastilindan quyov yasashga kirishadi-yu, ot yasab qo'yadi. Lekin bolaga juda yoshligidan boshlab, o'z o'rnini tuzatish, changlarni artish, piyolani yuvish, pomidor terish, tovuqqa don berish kabi ishlarni o'rgata borish zarur. Shuni ham ta'kidlash kerakki, mehnat tarbiyasi bolalarda baholi-qudrat bo'lmog'i lozim. Ammo turli yoshdagi bolalarni bir hil qarichdan o'lchab bir hil yondoshib bo'lmaydi. Bola ulg'aya borgan sari uning tarbiyasiga bo'lgan ma'suliyat ham ortib boradi. Keyinchalik mehnat turini tanlashda bolalarning qiziqishini, ularning foydali mehnat haqidagi tasavvurini ham hisobga olish kerak. Shuningdek, ishning ko'pchilik bo'lib bajaradigan shaklini tanlash lozim (kartoshka, piyoz qazish, begona o'tlardan tozalash, dala ishlariga ko'maklashish kabi). Ko'pchilik qilinadigan mehnat, shuningdek, mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lish ko'proq tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu narsa bolalarda hayotiy tashkilotchilik malakalarini rivojlantiradi, ikkinchi tomondan esa ularning buyruq, jazodan qo'rqitish bilan emas balki ko'pchilik mehnatining mohiyati bilan tarbiyalanadigan ongli intizomga o'rganadi. Mehnat turlarini tanlashda bolalar mehnati oldiga qo'yiladigan maqsad avval o'ng'ay, soddaroq, bolalarga tushunarli, yaqin bo'lishi, keyin esa asta-sekin qiyinlashib, murakkablashib borishiga amal qilishi zarur.

Mehnat tarbiyasi yosh avlodni ijtimoiy ishlab chiqarishida qatnashishga amaliy tayyorlash va shu bilan birga ahloqiy, aqliy va estetik tarbiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Albatta mehnatni faqat jismoniy ish deb xato tushunish ham yaramaydi. Bolani dars qilishga, o'qishga va mustaqil mushohada qilishga undash ham mehnat. Uning to'garaklarga qatnashishga, biror hunar sohiblarining huzurida bo'lishiga, sport musobaqalarida qatnashishiga ham keng yo'l ochib berishi kerak va uning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilishga vaqt topa bilish lozim. Tarbiya borasida shu narsani esda tutish kerakki, har qanday bajarilgan ishda erishilgan muvaffaqiyat o'z vaqtida ruhlantirib turilsa yaxshi samara beradi. Bola topshirilgan vazifani o'z vaqtida va to'la-to'kis ado etgan bo'lsa, albatta siz uni maqtab qo'yasiz. Hamma ham o'zi haqida shirin gaplarni eshitishni istaydi, qolaversa inson tabiatan maqtovni yaxshi ko'radi. Bu maqtov esa bolaning keyingi ishlaridagi muvaffaqiyat uchun zamin bo'lib qoladi.

Bola maktabga qadam qo'yishi bilanoq uning ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor bilan qarash vaqti yetadi, ya'ni darsda, uyda va dars vazifalarini bajarishayotganda uning faoliyatini baholab, ruhlantirib turish yoki "engilgina" tanbeh bilan siylab borish fodayli bo'ladi. Darsni tayyorlab bo'lgandan so'ng jismoniy mehnat bilan shug'ullanishda bola o'z ishidan qoniqish hosil qiladi va ishini ishtiyoq bilan bajaradi. Bolalarga o'z olidilariga maqsad qo'yishi va ish jarayonida o'z vazifasiga samimiy va vijdonan yondashib borishlari lozimligini ham uqtirib borish kerak.

Bolalarda yoshlikdan samimiylik, ezigulik va boshqalarga yaxshilik qilish kabi hususiyatlarni mujassamlashtirib borish ham muhim ahamiyatga ega. Birovga yaxshilik qilish esa albatta mehnat orqali amalga oshiriladi. Bola oilada mehnat ko'nikmalarini ko'proq hosil qilsada faqat oiladagi mehnat tarbiyasi bilan qoniqib qolish kerak emas, chunki har xil sharoitdagi va muhitdagi oilalar bo'ladi,

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

ba'zilarida ota-ona kun bo'yi ishda bo'lishadi. Ma'lum bir vazifani buyurib ketishi mumkin-u, lekin ularda nazorat qilish imkoniyatlari bo'lmaydi. Shu sababli har qanday holda ham oilaga maktab hamrohlik qilish yaxshi natijalarga erishishning garovi bo'lib qoladi.

O'zlarida mehnat tarbiyasini yaxshi o'zlashtirgan kishilargina yosh avlodni mehnat tarbiyasi bilan bog'lab tarbiyalashdek ulkan vazifani bajarishlari oson kechishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Бердиева, Ханифа Мейлиевна Изучение научных основ механизации и автоматизации управления сельским хозяйством в курсе физики средней школы (на материале сельских школ Узбекистана). <https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertaciya-izuchenie-nauchnyh-osnov-mehanizatsii-i-avtomatizatsii-upravleniya-selskim-hozyaystvom-v-kurse-fiziki-sredney-shkoly-na-m>

2. Бердиева Х.М., Шаманов М.Х., Абдурахмонова Р.Х., Гулбоева Б.Н. Технология и методика обучения учащихся общеобразовательных школ // Студенческий вестник: электрон. научн. журн. 2018. № 29(49). URL: <https://internauka.org/journal/stud/herald/49> (дата обращения: 10.03.2022).

3. Бердиева Х.М. Развитие профессиональных коммуникативных навыков педагогов в сфере образования. <https://s.siteapi.org/d955411c180ee78/docs/khhp4bee6u8g8goowcsg0gcg8os0kw>

4. Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna Pedagogical support and development of the intellectual opportunities of children in preschool education <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2019/12/abstract-pedagogical-support-and-development-of-the-intellectual-opportunities-of-children.pdf>

5. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat. The quality of preschool education at the present stage. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year : 2021, Volume : 11, Issue : 10. [10.5958/2249-7137.2021.02402.2](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001)

<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001>

6. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat Tasks for preschool educators. [10.5958/2249-877X.2021.00078.3.](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023)

<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023>

7. Berdiyeva M.M. Formation of intellectual culture of a preschooler. <https://scientific-conference.com/images/PDF/2019/55/International-scientific-review-LIV-ISBN.pdf>

8. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Мактаб ўқувчиларини касб-хунарга ўргатиш йўллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20282%29%20%28web%29%20283%29.pdf>

9. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Таълим тизимини модернизациялашдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш усуллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20282%29%20%28web%29%20283%29.pdf>

10. Бердиева Мухаббат Мейлиевна. Педагогик кўллаб-қувватлаш асосида илк ёшдаги болаларни интеллектуал ривожлантириш. “Профессионал таълим тизимида ислохотлар: малака ошириш таълим турида инновацион ғоялар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. <https://staff.tiame.uz/storage/users/546/articles/iMJfaUDoPQYZqSxUhG7olj9aZ9XSLff9CSErkMxL.pdf>

11. Usmanova Saodat Erkinovna. (2021). Formation of spiritual and moral qualities of preschoolers on the basis of public education. Middle European Scientific Bulletin, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.421>

12. Усманова Саодат Эркиновна Возможности Использования Мультимедийных Компьютерных Программ В Развитии Детей Дошкольного Возраста. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46438589>

13. Jumayeva malika aliyevna, & buriyev jamshid jumanazarovich. (2021). The role of activity in the upbringing and development of the child . International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(2), 126–129. Retrieved from <https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/40>

14. Jumayeva Malika Aliyevna. (2021). Independent musical activity in preschool organizations. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(1), 9–10. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/16>

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

15. Aliyevna, J. M. (2021). The Social Activity of the Educator with the Family. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 12, 401-403. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/338>

16. Lola Utasheva Shoturaevna. (2021). Social and pedagogical activities in preschool educational institutions. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(11), 412-415. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/193>

17. Shoturayevna, U. L. (2021). Development of Creative Competence of Educators in Preschool Educational Institutions. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 12, 395-397. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/336>

18. Radjabova G.M. The educational value of oral folk art for preschoolers // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

19. Berdieva M.M. Increasing the research activity of a pupil of a preschool organization // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

20. Berdieva Kh.M. Functions of the organization of advanced training of teachers in the field of education // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

21. Utasheva L.Sh. Introducing preschoolers to the world of fiction // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С. {см. сборник}.

22. Usmonova S.E. Plot construction as a means of developing the creative abilities of children // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

23. Muhammadiyeva F.T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

24. Mamatmuminova M.G. Features of the use of animation in the development of creative abilities of preschoolers // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.